Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 821.512.133
FILOLOGIYA

FENTEZI YO'NALISHINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: PORTAL-KVEST MODELI QIYOSIY TAHLIL PREDMETI SIFATIDA

Mohira Ilxomjanovna Tursunova*
NamDChTI dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
✉ mohiragmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fentezi janrini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi va janrning muhim tarkibiy modellaridan biri portal-kvest modeli qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Tadqiqotda Farah Mendlesonning "Rhetorics of Fantasy" asarida ishlab chiqilgan tasnif tayanch nazariy asos sifatida olinib, ingliz adabiyoti (L. Kerroll, K.S. Lyuis, Dj.K. Rouling ijodi) va o'zbek adabiyoti (Xudoyberdi To'xtaboyev ijodi) namunalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiq natijasida ma'lum bo'ldiki, g'arb adabiyotidagi klassik portal-kvest modeli mustaqil ikkinchi olam yaratish tamoyiliga asoslansa, o'zbek adabiyotidagi mos keluvchi shakllar sehrli unsurni real ijtimoiy-tarixiy makonga singdirish orqali milliy-didaktik xususiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar

fentezi, portal-kvest modeli, qiyosiy adabiyotshunoslik, Farah Mendleson, ikkinchi olam, Xudoyberdi To'xtaboyev, ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti, janr nazariyasi.

DOI: 10.5281/zenodo.21743831

Kirish

Zamonaviy jahon adabiyotshunosligida fentezi janri nafaqat ommabop adabiyot sohasi, balki mustaqil ilmiy-nazariy tadqiqot predmeti sifatida ham faol o'rganilmoqda[1]. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ingliz-amerika adabiyotshunosligida shakllangan fentezitaniyot (fantasy studies) yo'nalishi janrning tipologik xususiyatlarini, uning ichki tarkibiy modellarini va boshqa fantastik janrlar (ilmiy fantastika, mistika, gotika) bilan chegaraviy munosabatlarini aniqlashga qaratilgan bir qator nazariy tizimlarni yaratdi. Shu bilan birga, so'nggi o'n-o'n besh yil ichida o'zbek adabiyotshunosligida ham fentezi janriga bo'lgan ilmiy qiziqish sezilarli darajada oshdi. Bu birinchi navbatda, J.R.R. Tolkin, K.S. Lyuis, Ursula Le Guin kabi jahon fentezichi yozuvchilarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi va milliy sarguzasht-fantastik nasr an'analarini qiyosiy nuqtayi nazardan qayta idrok etishga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, fentezi janrining nazariy-metodologik asoslari o'zbek adabiyotshunosligida hali yaxlit tizim sifatida shakllanmagan, xususan, janrning eng mashhur tarkibiy modellaridan biri bo'lgan portal-kvest modeli o'zbek va ingliz adabiyoti materiali asosida qiyosiy jihatdan deyarli tadqiq etilmagan. Tadqiqotning maqsadi fentezi janrini o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini umumlashtirish va portal-kvest modelini ingliz hamda o'zbek adabiyoti namunalari misolida qiyosiy tahlil qilish, ikki adabiyotdagi o'xshash va farqli xususiyatlarni ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: 1) fentezi janrining jahon va o'zbek adabiyotshunosligidagi nazariy-metodologik o'rganilish holatini tahlil qilish; 2) portal-kvest modelining nazariy ta'rifi va tarkibiy unsurlarini aniqlash; 3) ushbu modelning ingliz adabiyotidagi klassik namunalarini (L. Kerroll, K.S.

[1]Clute J., Grant J. The Encyclopedia of Fantasy. London: Orbit, 1997.

Lyuis, Dj.K. Rouling) tahlil qilish; 4) o‘zbek adabiyotida (Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodi misolida) portal-kvest modeliga yaqin shakllarni aniqlab, ularning milliy o‘ziga xosligini ochib berish; 5) ikki adabiyotdagi model o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni qiyosiy tahlil qilish. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, struktural-poetik va tavsiflash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qo‘llanilgan qiyosiy-tipologik metod ikki adabiyotdagi asarlarni ularning genetik yoki bevosita ta’sir munosabatlaridan qat’i nazar, struktural-tipologik o‘xshashlik va farqlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Struktural-poetik metod asarning ichki qurilishi syujet, kompozitsiya, xronotop, obrazlar tizimi darajasida tahlil o‘tkazishga xizmat qiladi. Tavsiflash metodi esa har ikki adabiyotdan olingan matn parchalarini original tilda keltirib, ularning badiiy-uslubiy xususiyatlarini aniqlashtirishda qo‘llaniladi. Tadqiqot materiali sifatida L. Kerrolning “Alice’s Adventures in Wonderland”, K.S. Lyuisning “The Lion, the Witch and the Wardrobe” hamda X. To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarlari tanlab olindi. Bu tanlov ularning ikki adabiyotda ham eng mashhur va tez-tez o‘qiladigan bolalar-o‘smirlar asarlari ekanligi, shuningdek ikkalasida ham qahramonning kundalik hayotdan g‘ayrioddiy vaziyatga o‘tishi markaziy syujet unsuri bo‘lganligi bilan izohlanadi.

Fentezi janrining nazariy tahlili XX asr o‘rtalarida, ayniqsa J.R.R. Tolkinning “On Fairy-Stories” (1947) risolasi bilan boshlangan deb hisoblanadi. Tolkin bu asarida fantastik adabiyotning markaziy tushunchasi sifatida “Ikkinchi olam” (Secondary World) g‘oyasini ilgari suradi, yozuvchi o‘z ichki mantiqiga, tarixiga va qonuniyatlariga ega bo‘lgan mustaqil dunyo yaratadi, o‘quvchi esa ushbu dunyoga “ikkilamchi ishonch” (secondary belief) orqali kiradi[2].

Keyinchalik frantsuz strukturalisti Svetan Todorov “fantastik” tushunchasini ilmiy jihatdan aniqlashtirdi. Uning nazariyasiga ko‘ra, fantastika bu o‘quvchi va qahramonning tabiiy va g‘ayritabiiy hodisa o‘rtasida “ikkilanish” (hésitation) holatini boshdan kechirishi bilan bog‘liq o‘tkinchi hodisadir[3]. Todorov tasnifi asosan fantastika bilan ilmiy fantastika va ertak (mervelleux) o‘rtasidagi chegarani belgilashga xizmat qiladi.

Rozmari Jekson o‘zining “Fantasy: The Literature of Subversion” (1981) asarida fentezi janrini psixoanalitik va ijtimoiy-tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilib, uni mavjud ijtimoiy tartibga nisbatan “subversiv” (barhamovchi) matn sifatida talqin qiladi[4].

Fentezi janri tipologiyasi sohasidagi eng batafsil va tizimli tadqiqotlardan biri britaniyalik adabiyotshunos Farah Mendlesonning “Rhetorics of Fantasy” (2008) monografiyasidir. Mendleson fentezi asarlarini muallif tomonidan fantastik unsurning matnga kiritilish uslubiga ko‘ra to‘rtta asosiy toifaga ajratadi: portal-kvest fentezisi, immersiv fentezi, intruziv fentezi va liminal fentezi[5]. Ushbu tasnif bugungi kunda jahon fentezitaniyotida eng ko‘p qo‘llaniladigan nazariy asoslardan biriga aylangan, chunki u janrni mavzu yoki obrazlar darajasida emas, balki qahramon va fantastik olam o‘rtasidagi rivoyat-strukturaviy munosabat darajasida tavsiflaydi.

Amerikalik olim Brayan Attebery “Strategies of Fantasy” (1992) asarida fentezi janrini “fuzzy set” aniq chegaralarga ega bo‘lmagan, markaziy namunalar atrofida guruhlangan janr sifatida tavsiflaydi[6], bu esa Mendleson tasnifini to‘ldiruvchi konseptual yondashuv hisoblanadi.

Alohida ta’kidlash joizki, amerikalik yozuvchi va adabiyotshunos Ursula K. Le Guin ham o‘zining nazariy-publitsistik maqolalarida fentezi tilining uslubiy register muammosini ko‘tarib chiqqan. Uning fikricha, muvaffaqiyatsiz fentezi asarlarining aksariyati aynan uslubiy jihatdan zaif, kundalik nutq bilan “baland” fantastik dunyoni tasvirlashga urinishdan aziyat chekadi. Bu kuzatuv o‘zbek va ingliz adabiyoti qiyosida ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki, quyida ko‘rsatilganidek, ikki an’anadagi portal-kvest namunalari aynan uslubiy registr, ya’ni “baland” mifopoetik uslub va “oddiy”, kundalik-so‘zlashuv uslubi o‘rtasidagi farq orqali ham bir-biridan ajralib turadi.

[2]Tolkien J.R.R. On Fairy-Stories // Tree and Leaf. London: George Allen & Unwin, 1964. – P. 3–84.

[3]Todorov T. The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre / transl. by R. Howard. Ithaca: Cornell University Press, 1975.

[4]Jackson R. Fantasy: The Literature of Subversion. London: Methuen, 1981.

[5]Mendlesohn F. Rhetorics of Fantasy. Middletown: Wesleyan University Press, 2008. – P. 1–2.

[6]Attebery B. Strategies of Fantasy. Bloomington: Indiana University Press, 1992.

O‘zbek adabiyotshunosligida fentezi janri nisbatan yosh tadqiqot yo‘nalishi bo‘lib, uning ilmiy-nazariy asoslari so‘nggi o‘n yillikda, xususan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari doirasida shakllana boshladi. Jumladan, Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy kengashda himoya qilingan tadqiqotda fentezi janridagi til, mifologik obrazlar, madaniy kodlar va ramzlarning qiyosiy o‘rganilishi masalasi Ursula Le Guin va Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodi misolida ko‘rib chiqilgan[7]. Bu tadqiqot o‘zbek va g‘arb fentezisidagi lingvomadaniy xususiyatlarni qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, milliy adabiyotshunoslikda fentezi janrini xorijiy namunalar bilan qiyoslashning dastlabki jiddiy urinishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy kengashda N.Q. Bo‘riyeva tomonidan himoya qilingan doktorlik (DSc) dissertatsiyasida J.R.R. Tolkin ijodidagi qadriyatlar va moddiylikka oid konseptlarning faollashuvi keng qamrovli lingvokonseptual tahlil qilingan; unda, jumladan, fentezi janrining nazariy-lingvistik asoslari, “Yaxshilik–Yovuzlik”, “Kuch”, “Hayot–O‘lim” kabi konseptlarning freym va geshtalt modellar asosida ifodalanishi statistik tahlillar bilan asoslangan[8].

Shuningdek, ilmiy anjuman materiallarida Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida qo‘llangan fentezi janri unsurlarining tasnifi alohida mavzu sifatida ko‘tarilgan[9], bu esa milliy nasrda fentezi unsurlarini aniqlashga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganidan dalolat beradi. Alohida ta’kidlash joizki, o‘zbek tadqiqotchilari, asosan, fentezi janrini badiiy tasviriy vositalar, lingvokonseptual tahlil yoki tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishga moyil bo‘lib, janrning strukturaviy-tipologik modellarini (jumladan, portal-kvest, immersiv va intruziv fentezi kabi) qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi asosida chuqur tahlil qilish hali yetarlicha rivojlanmagan. Aynan shu bo‘shliq mazkur maqolaning nazariy-metodologik zaruratini belgilaydi.

Bundan tashqari, so‘nggi ilmiy anjuman va jurnal maqolalarida fentezi janridagi badiiy tasviriy vositalarning roli, obraz yaratish va syujet rivojlantirishdagi funksiyasi alohida tadqiq etilmoqda. Shu qatorda, D. Nasriddinovning “Fentezi genezisi va uning ilmiy talqini” nomli maqolasida fentezi yo‘nalishining shakllanishida mif, ertak va ritsarlik romanlari kabi tarkibiy qismlarining o‘rni xorijiy olimlarning ilmiy qarashlariga tayangan holda nazariy-tipologik jihatdan tadqiq qilingan[10]. Bunday tadqiqotlar, garchi ular bevosita portal-kvest kabi struktural modellarga qaratilmagan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyotshunosligida fentezi janriga bo‘lgan uslubiy-tanqidiy e’tiborning kengayib borayotganidan dalolat beradi va kelajakda struktural-tipologik tadqiqotlar uchun zamin yaratadi. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiyotshunosligidagi fentezi tadqiqotlari uch asosiy yo‘nalishda rivojlanmoqda: lingvokonseptual va lingvomadaniy tahlil; badiiy tasviriy vositalar va poetika tahlili; tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil. Ushbu maqolada taklif etilayotgan struktural-qiyosiy yondashuv esa to‘rtinchi, hali yetarlicha rivojlanmagan yo‘nalish sifatida qaralishi mumkin.

Mendleson tasnifidagi birinchi va tarixiy jihatdan eng qadimiy model portal-kvest fentezisi bo‘lib, unda bosh qahramon o‘zining oddiy, tanish dunyosidan chiqib, fantastik olamga kirib boradi va u yerda qahramonlik sayohati (kvest)ni amalga oshiradi[11]. Tadqiqotchi Stefan Ekman ta’kidlaganidek, portal-kvest fentezisi qahramonni bosh nuqtayi nazar sifatida fantastik olamga yo bizning dunyomizning bir versiyasidan (masalan, kiyim shkafi orqali), yo fantastik olamning o‘zidagi “kichik, xavfsiz va tushunarli” makondan olib kiradi[12].

Ushbu modelning tarkibiy unsurlarini quyidagicha ajratish mumkin:

bo‘sag‘a yoki portal – qahramonni oddiy dunyodan fantastik dunyoga o‘tkazuvchi chegara nuqtasi (eshik, kiyim shkafi, tunnel, ko‘zgu va h.k.);

ikkinchi olam – o‘z geografiyasi, tarixi, mifologiyasi va qonuniyatlariga ega mustaqil fantastik makon;

kvest strukturasi – qahramonning aniq maqsad sari yo‘l bosishi, unda sinovlardan o‘tishi va yordamchi/dushman personajlar bilan to‘qnashuvi;

[7]Hasanova X.B. Fentezi janridagi til, mifologik obrazlar, madaniy kodlar va ramzlarning qiyosiy o‘rganilishi (Ursula Le Guin va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari misolida): Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. Buxoro: BuxDU.

[8]Bo‘riyeva N.Q. J.R.R. Tolkin asarlarida qadriyatlarga va moddiylikka xos konseptlar faollashuvi: Filol. fanl. dok. (DSc) diss. avtoref. Samarqand: SamDCHTI, 2026.

[9]Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida qo‘llangan fentezi janrining tasnifi // Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – B. 425.

[10]Nasriddinov D. Fentezi genezisi va uning ilmiy talqini // Ilmiy axborotnoma (SamDU). — 2020. №6 (124/2). – B. 5–12.

[11]Mendlesohn F. Ko‘rsatilgan asar. — P. 1.

[12]Ekman S. Here Be Dragons: Exploring Fantasy Maps and Settings. Middletown: Wesleyan University Press, 2013 (Mendlesohn tasnifi tahlili asosida).

transformatsiya – qahramonning sayohat davomida ichki o‘zgarishi, ko‘pincha kattalar dunyosiga initsiatsiya motivini o‘zida mujassam etadi;

qaytish (yoki qaytmaslik) motivi – qahramonning boshlang‘ich dunyoga qaytishi yoxud fantastik olamda qolib ketishi.

Ushbu model jahon adabiyotida L. Kerrolning “Alisa mo‘jizalar mamlakatida”, K.S. Lyuisning “Narniya solnomalari” turkumi, Dj.R.R. Tolkinning “Xobbit” va Dj.K. Roulingning “Garri Potter” turkumida yorqin namoyon bo‘ladi.

Mendleson, shuningdek, portal-kvest fentezisining o‘zi ichida ham bir necha kichik turlarni farqlaydi: “oshkora portal” (explicit portal) portal matnda aniq va bir martalik voqea sifatida tasvirlanadi (masalan, kiyim shkafi orqali o‘tish); “yashirin portal” (implied portal) chegaradan o‘tish qahramon uchun sezilmasdan, asta-sekin yuz beradi; va “murakkablashtirilgan portal” (elaborated portal) o‘tish jarayonining o‘zi keng va batafsil tasvirlanib, mustaqil syujet bosqichiga aylanadi. Ushbu ichki tasnif portal-kvest modelining nafaqat yagona qolip emas, balki muallifning uslubiy tanloviga bog‘liq moslashuvchan struktura ekanligini ko‘rsatadi.

Lyuis Kerrolning “Alice’s Adventures in Wonderland” (1865) asari portal-kvest modelining eng qadimgi va klassik namunalaridan biri hisoblanadi. Asarda oq quyonni kuzatib borayotgan Alisa quyon iniga tushib ketadi:

“In another moment down went Alice after it…”[13]

Mana shu lahza qahramonning oddiy dunyodan fantastik olamga o‘tishini bildiruvchi klassik portal sahnasidir. Diqqatga sazovor jihati shundaki, bu yerda portal tabiiy landshaft unsuri (quyon ini) orqali amalga oshadi va qahramonning bu o‘tishga hech qanday ongli tayyorgarligi yo‘q, bu esa Mendleson ta’kidlagan “tasodifiy portal” turiga misol bo‘ladi.

K.S. Lyuisning “The Lion, the Witch and the Wardrobe” (1950) asarida esa portal ancha “marosimiy” xususiyat kasb etadi, qahramon Lyusi kiyim shkafi ichiga kirib, asta-sekin qorli o‘rmonga chiqib qoladi:

“…she found that she was standing in the middle of a wood…”[14]

Bu yerda muallif portal orqali o‘tishni bosqichma-bosqich tasvirlaydi (kiyimlar orasidan yurish, sovuqni his qilish), bu esa o‘quvchida “ikkilamchi ishonch”ni asta-sekin shakllantirish uchun xizmat qiladi. Muhimi, Lyusi istalgan payt orqaga, kiyim shkafi ochiq eshigi tomon qaytishi mumkinligini biladi, bu esa portal-kvest modelining “qaytish kafolati” unsurini aks ettiradi.

Dj.K. Roulingning “Garri Potter” turkumida portal yanada institutsionallashgan shaklda namoyon bo‘ladi London vokzalidagi mavjud bo‘lmagan “to‘qqiz yarim” platforma orqali qahramon sehrli dunyoga kiradi. Bu misol shuni ko‘rsatadiki, XX asr oxiri — XXI asr boshi ingliz fentezisida portal endi tasodifiy emas, balki jamiyat ichida institutsionallashgan, alohida ijtimoiy guruh (sehrgarlar) tomonidan nazorat qilinadigan chegara sifatida talqin etiladi. Muhim jihati shundaki, bu yerda “ikkinchi olam” endi qahramondan butunlay ajratilgan alohida geografik makon emas, balki xuddi shu London shahrining o‘zida, oddiy odamlar (mag‘llar) ko‘zidan yashiringan parallel ijtimoiy qatlam sifatida mavjud. Bu portal-kvest modelining yana bir evolyutsion bosqichini, ya’ni “ikkinchi olam”ning geografik emas, balki ijtimoiy-institutsional chegaralar orqali ajratilishini ko‘rsatadi.

Dj.R.R. Tolkinning “Xobbit” (1937) asarida esa portal-kvest modeli boshqacha, ancha “yumshoq” shaklda namoyon bo‘ladi: qahramon Bilbo Bagins o‘zining tinch, mo‘tadil Shire hududidan chiqib, sarguzasht yo‘liga otlanadi, biroq bu yerda fizik ma’nodagi bitta aniq chegara nuqtasi (eshik yoki tunnel) emas, balki tanish va notanish hududlar o‘rtasidagi bosqichma-bosqich chegara kesib o‘tiladi. Bu holat Mendleson ta’kidlagan “yashirin portal”ning yorqin namunasi bo‘lib, u yerda geografik chegaradan o‘tish o‘quvchi va qahramon uchun deyarli sezilmaydi, biroq qahramonning ichki holati, “o‘z uyidan uzoqlashish hissi” orqali yuzaga chiqadi.

Yuqoridagi to‘rt misolning barchasida umumiy struktura saqlanadi: qahramon oddiy (real yoki nisbatan tinch) Angliya makonidan chiqadi, mustaqil, o‘z qonuniyatlariga ega fantastik olamga kiradi va u yerda kvest (sarguzasht, jang, initsiatsiya) orqali o‘zgaradi.

O‘zbek bolalar-sarguzasht nasrida portal-kvest modeliga eng yaqin turuvchi asar Xudoyberdi

[13]Carroll L. Alice’s Adventures in Wonderland. London: Macmillan, 1865. Chapter I.
[14]Lewis C.S. The Lion, the Witch and the Wardrobe. — London: Geoffrey Bles, 1950. — Chapter I.

To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” (1968–1982) romani hisoblanadi. Asar qahramoni, olti sinf o‘quvchisi Hoshimjon sehrli qalpoqcha topib oladi va uning yordamida turli kasb-hunarlarni “egallashga” urinadi[15]. Asar birinchi shaxs tilidan quyidagi so‘zlar bilan boshlanadi:

“Tanishib qo‘yaylik: otim Hoshim…”[16]

Bu kirish uslubi g‘arb portal-kvest asarlaridan farqli o‘laroq, voqealarni kundalik-maishiy, samimiy ohangda boshlaydi.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, “Sariq devni minib” asarida klassik ma’nodagi “ikkinchi olam” mustaqil geografiya va kosmologiyaga ega alohida fantastik makon mavjud emas. Buning o‘rniga sehrli unsur (qalpoqcha) qahramonning o‘ziga xos real, ijtimoiy-tarixiy jihatdan aniq belgilangan makoniga cho‘lni o‘zlashtirish jarayoni kechayotgan hududga kirib keladi[17]. Boshqacha aytganda, bu yerda portal makoniy chegara emas, balki imkoniyat chegarasi sifatida namoyon bo‘ladi: Hoshimjon boshqa dunyoga “o‘tmaydi”, balki o‘z dunyosining ichida sehrli vosita orqali yangi ijtimoiy rollarni sinab ko‘radi.

Bu xususiyat, bizningcha, o‘zbek fentezi-yaqin nasrining milliy o‘ziga xosligini belgilaydi: sehr mustaqil kosmologik tizim sifatida emas, balki real hayotiy-axloqiy sinov vositasi sifatida ishlatiladi. Asar davomida Hoshimjonning bilimsizligi, tajribasizligi tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchrashi tasodifiy emas — bu yozuvchining asosiy g‘oyaviy-badiiy maqsadini, ya’ni sehrgina emas, mehnat va bilim orqaligina haqiqiy natijaga erishish mumkinligi haqidagi didaktik pafosni ifodalaydi[18]. Shu tariqa, “Sariq devni minib” asarini Mendleson tasnifi nuqtayi nazaridan sof portal-kvest emas, balki intruziv fentezi va kvest strukturasining o‘ziga xos milliy sintezi sifatida baholash mumkin: sehr olam chegarasidan emas, balki maishiy borliqning o‘zidan “intrusiya” qiladi, biroq bunda klassik kvestga xos sayohat, sinovlar va bosqichma-bosqich transformatsiya unsurlari to‘liq saqlanib qoladi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, milliy tadqiqotchilar tomonidan o‘tkazilgan qiyosiy tahlillar Ursula Le Guin va Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodini lingvomadaniy jihatdan taqqoslashga urinib ko‘rgan bo‘lsada[19], portal-kvest strukturasining o‘zi ya’ni qahramonning fantastik makonga kirish mexanizmi hali maxsus struktural-tipologik tahlil predmeti bo‘lmagan. Bu esa mazkur maqoladagi qiyosiy tahlilning ilmiy yangiligini ta’minlaydi.

O‘zbek sarguzasht-fentezi nasrining portal-kvestga yaqin shakllari ildizlarini og‘zaki xalq ijodiga borib taqash mumkin. O‘zbek xalq ertaklarida keng tarqalgan dev, pari, jin, sehrli buyum (tayoqcha, taqinchoq, qalpoqcha) motivlari, shuningdek qahramonning “yetti iqlim”, “pari mamlakati” yoki “devlar saltanati”ga sayohati kabi syujet elementlari mustaqil fantastik makon g‘oyasiga yaqin turadi. Xalq dostonlarida, jumladan “Alpomish” dostonida qahramonning uzoq va notanish yurtga (Boysun – Qalmoq mamlakati) safari hamda u yerdagi sinovlardan o‘tishi ham kvest strukturasining tarixiy-genetik ildizlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, X. To‘xtaboyev ijodidagi sehrli qalpoqcha motivi mustaqil ixtiro emas, balki milliy ertakchilik an’anasining zamonaviy, realistik-didaktik nasr shakliga transformatsiyalanishi sifatida qaralishi mumkin.

Diqqatga sazovorki, “Sariq devni minib” asarining mantiqiy davomi bo‘lmish “Sariq devning o‘limi” (1973) romanida ham xuddi shunday model davom etadi: Hoshimjon endi kattaroq ijtimoiy vazifalarda jinoyatchilikka qarshi kurashda ishtirok etadi, biroq bu safar sehrli qalpoqchaga emas, balki o‘zining shaxsiy fahm-farosati va jasoratiga tayanadi. Bu, bizningcha, muallifning dastlabki qissadagi didaktik g‘oyasini sehr emas, balki shaxsiy fazilatlar haqiqiy natijaga olib kelishini ikkinchi kitobda yanada izchil rivojlantirganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ikki qismli romanning umumiy kompozitsiyasi g‘arb fentezisidagi ko‘p qismli turkumlarga (masalan, “Narniya solnomalari” yoki “Garri Potter” turkumi) qisman o‘xshab ketadi: qahramon har bir keyingi kitobda oldingi tajribasi asosida yangi, murakkabroq sinovlarga duch keladi.

Zamonaviy o‘zbek nasrida ham fentezi unsurlaridan foydalanish davom etmoqda: masalan, Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasida milliylik va mifopoetik unsurlarning badiiy talqini alohida tadqiqot pred-

[15]To‘xtaboyev X. Sariq devni minib: sarguzasht qissa. Toshkent: Yosh gvardiya, 1982.
[16]To‘xtaboyev X. Sariq devni minib: sarguzasht qissa. Toshkent: Yosh gvardiya, 1982.
[17]To‘xtaboyev X. Sariq devni minib: sarguzasht qissa. Toshkent: Yosh gvardiya, 1982.
[18]Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodiga oid tahliliy materiallar (lib.jbnuu.uz).
[19]Hasanova X.B. Ko‘rsatilgan asar.

meti sifatida ko‘rsatilgan. Bu kabi asarlar o‘zbek fentezi-yaqin nasrining rivojlanish istiqbolini va portal-kvest modelining milliy adabiyotda yanada chuqur ildiz otish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan tahlil asosida ingliz va o‘zbek adabiyotidagi portal-kvest (yoki unga yaqin) modellarining o‘xshash va farqli jihatlarini quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin:

Mezon	Ingliz adabiyoti (klassik portal-kvest)	O‘zbek adabiyoti (X. To‘xtaboyev misolida)
Fantastik olam maqomi	Mustaqil, o‘z kosmologiyasiga ega ikkinchi olam (Narniya, Wonderland)	Mustaqil ikkinchi olam yo‘q; sehr real makon ichida harakat qiladi
Portal turi	Fizik chegara (shkaf, in, vokzal platformasi)	Sehrli buyum (qalpoqcha) — makoniy emas, funksional chegara
Kvest maqsadi	Qahramonlik, dunyoni qutqarish, adolatni tiklash	Kasb-hunar egallash, ijtimoiy voyaga yetish
Fantastikaning manbai	O‘rta asr ritsarlik romani, Shimoliy Yevropa mifologiyasi, xristian allegoriyasi	O‘zbek xalq ertaklari (dev, sehrli buyum motivlari), XX asr o‘rtasi bolalar adabiyoti an’anasi
G‘oyaviy-badiiy funksiyasi	Ko‘pincha epik-geroik, ba’zan diniy-allegorik	Didaktik-axloqiy, mehnat va bilimni ulug‘lovchi
Qahramonning qaytishi	Ko‘pincha ixtiyoriy, “qaytish kafolati” mavjud	Boshidanoq real dunyodan chiqmagani uchun alohida motiv sifatida ishlamaydi
Janr manbai	Yozma adabiy an’ana (romantik, viktorian ertak an’anasi)	Og‘zaki xalq ertaki va hajviy-sarguzasht qissa an’anasi

Umumiy o‘xshashlik: ikkala an’anada ham qahramon boshlang‘ich holatidan ko‘proq bilim, tajriba va ma’naviy yetuklik bilan chiqadi; ikkalasida ham sehrli/fantastik unsur sinov vositasi vazifasini bajaradi; ikkalasida ham bolalar-o‘smirlar auditoriyasiga qaratilgan tarbiyaviy pafos kuchli namoyon bo‘ladi.

Asosiy farq shundaki, g‘arb an’anasida fantastik olam ontologik jihatdan avtonom (o‘z qonuniyatlariga ega alohida borliq) bo‘lsa, o‘zbek an’anasida sehr ijtimoiy-tarixiy real makon ichida funksional vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu farq, bizningcha, ikki adabiy an’ananing madaniy – falsafiy asoslaridagi farqni aks ettiradi: g‘arb fentezisi ko‘p hollarda mifologik-kosmogonik dunyoqarashga, o‘zbek sarguzasht – fentezi qissasi esa ertak va real-didaktik pedagogik an’anaga tayanadi.

Aniqlangan farqlarni M. Baxtinning xronotop nazariyasi nuqtayi nazaridan ham izohlash mumkin: g‘arb portal-kvest fentezisida vaqt va makon qahramon o‘tayotgan chegaraga qarab keskin “sinadi”, real dunyo xronotopidan fantastik olam xronotopiga to‘liq o‘tish yuz beradi, bu ikki xronotop bir-biridan mustaqil, hatto vaqt oqimi tezligi jihatidan ham farqli bo‘lishi mumkin (masalan, Narniyada bir necha soat real dunyoning bir necha yiliga to‘g‘ri kelishi). O‘zbek sarguzasht-fentezi qissasida esa xronotop uzluksizligicha qoladi. Voqealar bir xil tarixiy-geografik vaqt-makon ichida, real ijtimoiy jarayonlar (masalan, cho‘lni o‘zlashtirish, maktabda o‘qish) fonida kechadi. Xronotopning uzilishi yoki uzluksizligi, demak, ikki modelni farqlovchi yana bir muhim struktural mezon sifatida qaralishi mumkin.

Portal-kvest modelini o‘zbek va ingliz adabiyoti materiali asosida qiyosiy tahlil qilish bir qator nazariy va amaliy natijalarga olib keladi. Birinchidan, bu tahlil F. Mendleson tasnifining universal emasligini, balki madaniy kontekstga qarab moslashtirilishi lozimligini ko‘rsatadi: g‘arb adabiyotshunosligida ishlab chiqilgan toifalar boshqa milliy adabiyotlarga mexanik tarzda ko‘chirilmasligi, balki har bir milliy an’ananing o‘ziga xos badiiy-falsafiy asoslarini hisobga olgan holda qayta talqin qilinishi zarur.

Ikkinchidan, o‘zbek adabiyotshunosligi uchun bu kabi qiyosiy tadqiqotlar milliy sarguzasht-fantastik nasrni jahon fentezitaniyoti kontekstiga olib chiqish, uni xalqaro ilmiy muomalaga kiritish imkonini beradi. Xususan, Xudoyberdi To‘xtaboyev kabi yozuvchilarning ijodini G‘arb fentezisi klassiklari bilan bir qatorda struktural-tipologik jihatdan tahlil qilish o‘zbek bolalar adabiyotining nazariy jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan qatlamlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, amaliy jihatdan ushbu tahlil natijalari filologiya fakultetlarida “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Bolalar adabiyoti” va “Fentezi janri nazariyasi” kabi fanlarni o‘qitishda, shuningdek fentezi janridagi asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida nazariy-metodologik yo‘riqnoma sifatida qo‘llanilishi mumkin. Tarjimon uchun, xususan, portal sahnalarining stilistik xususiyatlarini (masalan, “tasodifiy” yoki “marosimiy” portal ohangini) saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu sahnalar o‘quvchida fantastik olamga nisbatan “ikkilamchi ishonch”ni shakllantiruvchi kalit lahzalar hisoblanadi.

Yakuniyat sifatida ta’kidlash lozimki, portal-kvest modelining o‘zbek adabiyotidagi tatbiqini o‘rganish nafaqat nazariy-tipologik, balki ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Zamonaviy o‘zbek bolalar va o‘smirlar adabiyotini rivo-

jlantirishda jahon fentezi an’analaridan ijodiy foydalanish, shu bilan birga milliy og‘zaki ijod va real-didaktik pedagogik merosni saqlab qolish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu boradagi qiyosiy-nazariy tadqiqotlar yozuvchilar, tarjimonlar va adabiyotshunoslar uchun amaliy yo‘l-yo‘riq vazifasini o‘tashi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, fentezi janrini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari jahon adabiyotshunosligida J.R.R. Tolkin, S. Todorov, R. Jekson va ayniqsa F. Mendleson tadqiqotlari orqali yetarlicha rivojlangan tizim sifatida shakllangan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotshunosligida bu jarayon hali davom etmoqda va asosan lingvomadaniy hamda tarjimashunoslik yo‘nalishlarida rivojlanmoqda. Portal-kvest modelini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ingliz adabiyoti (L. Kerroll, K.S. Lyuis, Dj.K. Rouling) va o‘zbek adabiyoti (X. To‘xtaboyev) o‘rtasida strukturaviy o‘xshashliklar (kvest, transformatsiya, sinov) mavjud bo‘lsa-da, fantastik olamning ontologik maqomi va janrning g‘oyaviy-badiiy funksiyasida tub farqlar kuzatiladi. Bu farqlar ikki xalq badiiy tafakkurining tarixiy-madaniy o‘ziga xosligidan kelib chiqadi: g‘arb an’anasi mustaqil mifopoetik olam yaratishga, o‘zbek an’anasi esa real hayotiy-axloqiy tarbiyaga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, portal-kvest modeli qat’iy, o‘zgarmas qolip emas, balki muayyan madaniyat va davr talablariga moslashuvchan, dinamik struktura hisoblanadi. Shu bois, o‘zbek adabiyotshunosligida bu modelni tatbiq etishda uni g‘arb namunalariga mexanik ravishda taqqoslash emas, balki milliy adabiy-badiiy an’ana (xalq ertaklari, dostonlar, sovet davri bolalar nasri) bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilish metodologik jihatdan to‘g‘riroq yondashuv bo‘lib hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu qiyosiy tahlilni boshqa o‘zbek sarguzasht-fantastik asarlari (masalan, Bahodir Qobul ijodi) hamda zamonaviy jahon fentezi namunalari (N. Geyman, F. Pulman, T. Pratchett kabi mualliflar ijodi) asosida kengaytirish, shuningdek immersiv va intruziv fentezi modellarining o‘zbek adabiyotidagi namunalarini alohida tadqiq etish istiqbolli ilmiy yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Attebery B. Strategies of Fantasy.Bloomington: Indiana University Press, 1992. – 149 p.

Bo‘riyeva N.Q. J.R.R. Tolkin asarlarida qadriyatlarga va moddiylikka xos konseptlar faollashuvi: Filol. fanl. dok. (DSc) diss. avtoref. Samarqand: SamDCHTI, 2026.

Carroll L. Alice’s Adventures in Wonderland. London: Macmillan, 1865.

Clute J., Grant J. The Encyclopedia of Fantasy. London: Orbit, 1997. – 1049 p.

Ekman S. Here Be Dragons: Exploring Fantasy Maps and Settings. Middletown: Wesleyan University Press, 2013.

Hasanova X.B. Fentezi janridagi til, mifologik obrazlar, madaniy kodlar va ramzlarning qiyosiy o‘rganilishi (Ursula Le Guin va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari misolida): Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. Buxoro: BuxDU.

Jackson R. Fantasy: The Literature of Subversion. London: Methuen, 1981. – 211 p.

Lewis C.S. The Lion, the Witch and the Wardrobe. London: Geoffrey Bles, 1950.

Mendlesohn F. Rhetorics of Fantasy. Middletown: Wesleyan University Press, 2008. – 336 p.

Nasriddinov D. Fentezi genezisi va uning ilmiy talqini // Ilmiy axborotnoma (SamDU). 2020. №6 (124/2). – B. 5–12.

Rowling J.K. Harry Potter and the Philosopher’s Stone. London: Bloomsbury, 1997.

Todorov T. The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre / transl. by R. Howard. Ithaca: Cornell University Press, 1975. – 179 p.

Tolkien J.R.R. On Fairy-Stories // Tree and Leaf. London: George Allen & Unwin, 1964. – P. 3–84.

To‘xtaboyev X. Sariq devni minib: sarguzasht qissa.Toshkent: Yosh gvardiya, 1982.

Tulabayeva R. Xudoyberdi To‘xtaboyev fenomeni // O‘zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik. 2022. №1(2). – B. 110–120.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida qo‘llangan fentezi janrining tasnifi // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – B. 425–428.